

**“O‘zbekiston ipotekani qayta
moliyalashtirish kompaniyasi” AJ
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining
2026-yil 25 iyundagi
qarori bilan
“TASDIQLANGAN”**

“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati

USTAVI

(yangi tahrirda)

Toshkent – 2026-y.

Mundarija

1-bob. Umumiy qoidalar	3
2-bob. Jamiyatning huquqiy holati va javobgarligi.....	3
3-bob. Jamiyatning asosiy faoliyati	4
4-bob. Jamiyatning ustav kapitali	5
5-bob. Jamiyat aksiyalari va dividendlar	6
6-bob. Jamiyatning zaxira fondi.....	6
7-bob. Jamiyat boshqaruv organlari	6
8-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi.....	6
9-bob. Kuzatuv kengashi.....	9
10-bob. Ijroiya organi (Bosh ijrochi direktor)	13
11-bob. Jamiyat faoliyatini nazorat qilish.....	15
12-bob. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish.....	15
13-bob. Yakuniy qoidalar	16

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda – Jamiyat/Kompaniya) ustavi (keyingi o'rinlarda – Ustav) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

2. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-maydagi "Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5715-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-oktabrdagi "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-sonli qaroriga asosan 2019-yil 4-noyabrda tashkil etilgan.

3. Jamiyatning huquqiy holati, tashkiliy tuzilmasi, huquq va majburiyatlari, shuningdek, aksiyadorlarning huquq va majburiyatlari mazkur Ustav, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi, "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida aniqlanadi.

4. Jamiyatning firma nomi:

1) Jamiyatning davlat tilidagi to'liq firma nomi: **"O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati;**

Jamiyatning davlat tilidagi qisqartirilgan firma nomi: **"O'zIQMK" AJ.**

2) Jamiyatning rus tilidagi to'liq firma nomi: **Акционерное общество «Компания по рефинансированию ипотеки Узбекистана»;**

Jamiyatning rus tilidagi qisqartirilgan firma nomi: **АО «УзКПИ».**

3) Jamiyatning ingliz tilidagi to'liq firma nomi: **Joint-Stock Company "Mortgage Refinancing Company of Uzbekistan";**

Jamiyatning ingliz tilidagi qisqartirilgan firma nomi: **JSC "UzMRC".**

5. Jamiyatning manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Buyuk turon MFY, Oloy bozori ko'chasi, 64-uy, Orient biznes markazi.

6. Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzmrc.uz.

2-bob. Jamiyatning huquqiy holati va javobgarligi

7. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Jamiyat alohida yuridik shaxs hisoblanib, o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan mol-mulkka egalik qiladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, o'z zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

8. Jamiyat o'rnatilgan tartibda yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Jamiyat nomuayyan muddatga tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tegishli tartibda ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi sifatida ro'yxatga olingan.

9. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va

undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqli.

10. Jamiyat o'z mol-mulkiga mulk huquqi asosida egalik qiladi va uning mol-mulki kreditlar, aksiyalar joylashtirishdan hosil bo'lgan mablag'lar, asosiy vositalar, aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, yig'ilgan daromadlar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa usullarda olingan mol-mulkdan tashkil topadi.

11. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga (logotip), shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

12. Jamiyat mahalliy va xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularga to'lanadigan haq va mukofot puli miqdorlarini mustaqil belgilash huquqiga ega.

13. Jamiyat o'z ta'sis hujjatlarida belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqli.

14. Jamiyat o'z sho'ba xo'jalik jamiyatlari majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

15. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

16. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi majburiyatlari hamda o'z aksiyadorlari majburiyatlari yuzasidan javobgar emas.

17. Aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, biroq uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

18. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar Jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

19. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida to'lovga qobiliyatsiz bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan Jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina Jamiyatning to'lovga qobiliyatsizligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

3-bob. Jamiyatning asosiy faoliyati

20. Jamiyat tijorat tashkiloti hisoblanadi, uning asosiy faoliyati quyidagilardan iborat: ishtirokchi moliyaviy tashkilotlarga ular tomonidan berilgan ipoteka va ta'mir kreditlariga moliyaviy mablag'lar taqdim etish; banklar tomonidan berilgan ipoteka kreditlari bo'yicha talab qilish huquqini olish; pul mablag'larini banklar tomonidan chiqarilgan ipoteka qimmatli qog'ozlariga joylashtirish; ishtirokchi moliyaviy tashkilotlarga ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish; xizmatlarni masofadan turib (elektron xizmatlar) ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlarini, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini va ularning qarz qimmatli qog'ozlarini sotib olish, bo'sh pul mablag'larini bankka omonatlar

(depozitlar) sifatida kiritish.

21. Jamiyat o'z faoliyatini o'z mablag'lari hamda qarz kapital bozori (LCM) va qimmatli qog'ozlar kapital bozori (DCM) vositalari orqali jalb qilingan mablag'lar hisobidan moliyalashtiradi.

22. Jamiyat minoritar aksiyadorlarning huquqlari va manfaatlarini buzilgan taqdirda ularni himoya qilishning samarali mexanizmlarini, shu jumladan, yetkazilgan zararni qoplash choralarini ishlab chiqadi.

4-bob. Jamiyatning ustav kapitali

23. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valutasida ifodalanadi.

24. Jamiyatning ustav kapitali miqdori 1 396 226 571 000 so'mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 so'm bo'lgan 1 396 226 571 dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

25. Jamiyat ustav kapitalini 5 000 000 000 000 so'mgacha oshirish maqsadida har birining nominal qiymati 1 000 so'm bo'lgan 3 603 773 429 dona oddiy aksiyalarni qo'shimcha ravishda joylashtirishi mumkin (e'lon qilingan aksiyalar). Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq yoki yopiq obuna usullari bilan joylashtirilishi mumkin.

26. Jamiyat ustav kapitali:

1) Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin;

2) chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish, shuningdek, Jamiyat tomonidan aksiyalarning olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

27. Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Bunday qarorni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ham qabul qilishi mumkin.

28. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarilayotganda, Jamiyat aksiyadorlari Jamiyat ustav kapitalidagi aksiyalar miqdoriga mos ravishda qo'shimcha aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa egalar.

Jamiyat aksiyalarning yoki aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish orqali ushbu huquq to'g'risida aksiyadorlarga bildirish berishi shart. Imtiyozli huquqning amal qilish muddati bildirish e'lon qilingan kundan e'tiboran 10 kunni tashkil etadi. Imtiyozli huquq amal qiladigan muddat tugaguniga qadar Jamiyat qo'shimcha aksiyalarni imtiyozli huquqqa ega bo'lmagan shaxslarga joylashtirishga haqli emas.

29. Sotib olinadigan qo'shimcha aksiyalar faqat pul mablag'lari orqali to'lanadi.

30. Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

31. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kamayib ketsa, Jamiyat ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

32. Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni

kamaytirish tartibini belgilaydi.

5-bob. Jamiyat aksiyalari va dividendlar

33. Jamiyat faqat oddiy aksiyalar chiqaradi va har bir aksiya hujjatsiz shaklda hisobga olinadi. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

34. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

35. Jamiyat tomonidan aksiya bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiya egalarining dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi va ularga tegishli aksiyalarning soni hamda turiga qarab mutanosib ravishda taqsimlanadi.

36. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

37. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi.

6-bob. Jamiyatning zaxira fondi

38. Jamiyat o'z sof foydasi hisobidan zaxira fondini tashkil qiladi.

39. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, uning zararlari o'rnini qoplash, korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

40. Jamiyatda Jamiyat ustav kapitalining 15 foizi miqdorida zaxira fondi tashkil etiladi hamda ushbu miqdorga yetguniga va shu miqdorda saqlanishi ta'minlanguniga qadar har yili sof foydasining 5 foizigacha bo'lgan miqdorda zaxira fondiga ajratmalar o'tkazib boriladi.

7-bob. Jamiyat boshqaruv organlari

41. Jamiyat boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- 1) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- 2) Kuzatuv kengashi;
- 3) Ijroiya organi (Bosh ijrochi direktor).

8-bob. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi

42. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning oliy boshqaruv organidir.

43. Jamiyat har yili Aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi, qoida tariqasida, moliyaviy yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay, 1-iyulgacha o'tkazilishi shart. Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili Jamiyat yuridik ro'yxatdan o'tgan manzilda, Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq belgilangan boshqa manzilda yoki video-konferens aloqa rejimida o'tkaziladi.

44. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar ko'riladi:

- 1) Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;
- 2) Bosh ijrochi direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasining muddatini uzaytirish,

qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqida;

- 3) Jamiyat moliyaviy hisoboti va auditorlik tashkiloti xulosasi;
- 4) Kuzatuv kengashi va Ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari;
- 5) foyda va zararlarini taqsimlash;
- 6) Kuzatuv kengashining hisoboti;
- 7) Jamiyat faoliyatiga bog'liq boshqa masalalar.

45. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay, Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Kuzatuv kengashiga uning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga nomzodlar ko'rsatish mustasno.

46. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

47. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari Kuzatuv kengashi tashabbusiga ko'ra, shuningdek, yozma talab topshirilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh foizdan kam bo'lmagan qismiga egalik qiluvchi Aksiyadorlarning yozma talabiga ko'ra o'tkaziladi. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari Kuzatuv kengashi qaroriga asosan chaqiriladi.

48. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish uchun talab qabul qilingan sanadan e'tiboran 10 kun ichida Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yig'ilish vaqti, joyi va kun tartibi ko'rsatilgan qaror qabul qiladi. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish muddati, tegishli talab qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 kundan oshishi mumkin emas.

49. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

50. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Kuzatuv kengashining raisi va u uzrli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan taqdirda, Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

51. Agar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish yakunlanayotgan vaqtda Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining umumiy ellik foiziga egalik qiluvchi Aksiyadorlar (yoki ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsalar, mazkur Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tegishli tartibda o'tkazilgan hisoblanadi (kvorum mavjud hisoblanadi). Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum mavjud bo'lmasa, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi keyinga qoldiriladi va uning vaqti e'lon qilinadi.

52. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi Aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Har bir Aksiyador har qanday vaqtda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan vakilini almashtirishi yoki shaxsan

o'zi ishtirok etishi mumkin.

53. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "bitta ovoz beruvchi aksiya – bitta ovoz" tamoyiliga asosan amalga oshiriladi.

54. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masala yuzasidan qaror qabul qilish, qonunchilikda boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yig'ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiya egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

55. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish (Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar bundan mustasno);
- 2) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash va unga o'zgartirishlar kiritish;
- 3) Jamiyatni qayta tashkil etish;
- 4) Jamiyatni tugatish va u bilan bog'liq jarayonlar yuzasidan qarorlar qabul qilish;
- 5) Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
- 6) Kuzatuv kengashi tavsiyasiga asosan Bosh ijrochi direktorni saylash va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish
- 7) Bosh ijrochi direktorga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorlarini belgilash;
- 8) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- 9) Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;
- 10) o'z aksiyalarini olish, maydalash va yiriklashtirish;
- 11) Jamiyatning yillik hisobotini va korporativ strategiyasini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- 12) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- 13) Kuzatuv kengashining davriy hisobotlarini eshitish;
- 14) imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;
- 15) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- 16) Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- 17) Jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish, bundan mazkur Ustavning 20-bandida nazarda tutilgan Jamiyatning asosiy faoliyati doirasida yoki aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar mustasno;
- 18) Jamiyat tomonidan Jamiyatning affillangan shaxslari bilan tuzilishi mumkin bo'lgan bitim(lar) ro'yxatini tasdiqlash yoki affillangan shaxs bilan bitim(lar) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 19) Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;
- 20) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv organlari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;
- 21) Jamiyat aksiyalari beradigan huquqlarning o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni

ko'rib chiqish;

22) Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalariga amal qilish majburiyatini o'z zimmasiga olish to'g'risida qaror qabul qilish va xabar shaklini tasdiqlash;

23) Mustaqil professional konsalting tashkilotlarini jalb qilgan holda biznes-jarayonlar va loyihalarning Kompaniyani rivojlantirish maqsadlariga muvofiqligini har yili tahlil qilish va tahlil natijalarini eshitish to'g'risida qaror qabul qilish;

24) Jamiyat tomonidan xayriya (homiylilik) yoki tekin yordam to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish tartibi va shartlarini belgilash;

25) Elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda), shuningdek o'z vakolatlarini vakilga berish yoki umumiy yig'ilishni videokonferensiya shaklida o'tkazish yo'li bilan ovoz berish tartibini belgilash (tasdiqlash);

26) Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini saqlash xarajatlarini jamiyat mablag'lari hisobidan qoplash tartibini belgilash (tasdiqlash) (minoritar aksiyadorlar qo'mitasini tuzishda);

27) amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

56. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari bayonnomalari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tugagan kundan e'tiboran 10 (o'n) kun ichida ikki nusxada tuziladi. Har ikki nusxa ham Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

57. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portali - www.openinfo.uz saytida e'lon qilinadi. Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari Respublika fond birjasining kotirovka ro'yxatiga kiritilgan taqdirda, mazkur qarorlar fond birjasining rasmiy veb-saytida ham e'lon qilinadi.

58. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizomga binoan chaqiriladi va o'tkaziladi.

9-bob. Kuzatuv kengashi

59. Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

60. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobdor.

61. Kuzatuv kengashining a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar.

62. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni yetti kishidan iborat (Kuzatuv kengashi raisi bilan birga). Bunda, Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari soni to'rt kishini tashkil qiladi.

63. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida tanlov o'tkazish yo'li bilan tanlab olinadi.

Quyidagilar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

1) so'nggi uch yil ichida Jamiyatda va (yoki) Jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

2) Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

3) Jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi

shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

4) so'nggi uch yil ichida Jamiyatga va (yoki) Jamiyatning affillangan shaxslariga audit xizmatlarini ko'rsatgan audit tashkilotining xodimi;

5) ketma-ket olti yil davomida Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

6) Jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

7) Jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

8) davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

9) Jamiyatning ustavida yoki Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

64. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reyestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

65. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda ushbu Ustavda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

66. Kuzatuv kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyatning yillik biznes-rejasi bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat Ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

2) eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Jamiyatning Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun Kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etish;

3) Jamiyatning biznes rejasini tasdiqlash;

4) qonunchilikda, mazkur Ustavda hamda Jamiyatning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida Jamiyatning Kuzatuv kengashi tasdiqlashi nazarda tutilgan ichki me'yoriy hujjatlarni, shu jumladan kredit, investitsiya, Korporativ boshqaruv, risklarni boshqarish, inson resurslari va boshqa siyosatlarni tasdiqlash;

5) kreditlarni moliyalashtirish va qayta moliyalashtirish uchun ishtirokchi moliyaviy tashkilotlarga beriladigan maksimal kredit limitlarini belgilashda ishlatiladigan parametrlarni va risk limitlarini tasdiqlash;

6) Bosh ijrochi direktor va tegishli hollarda Risklarni boshqarish qo'mitasi va/yoki Nomzodlik va mukofotlash qo'mitasi tavsiyasiga asosan Bosh ijrochi direktor o'rinbosarlarini va Risklarni boshqarish bo'limi boshlig'ini tayinlash va vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

7) Jamiyatning Bosh ijrochi direktori va uning o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) uchun tanlov o'tkazishga oid Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatini tasdiqlash;

8) audit tekshiruvini o'tkazish (majburiy audit tekshiruvi bundan mustasno), audit tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan

shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

9) Ijroiya organi uchun javobgarlik hamda hisobot taqdim etish talablarini belgilash;

10) Ijroiya organi tomonidan ilgari surilgan yirik korporativ maqsadlar, siyosatlar, budjet va strategik masalalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash;

11) Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

12) Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

13) Ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Ijroiya organidan olish. Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

14) Aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

15) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

16) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

17) Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

18) dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

19) Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

20) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish, filial va vakolatxonalarini ochish;

21) Nomzodlik va mukofotlash qo'mitasining tavsiyasiga asosan Bosh ijrochi direktorga (Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi belgilab bergan eng yuqori miqdorlar doirasida) to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

22) Bosh ijrochi direktor hamda Nomzodlik va mukofotlash qo'mitasining tavsiyasiga asosan Ichki audit xizmati xodimlariga, Risklarni boshqarish bo'limi rahbariga hamda Korporativ maslahatchiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini belgilash;

23) Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish, bundan mazkur Ustavning 20-bandida nazarda tutilgan Jamiyatning asosiy faoliyati doirasida yoki aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar mustasno;

24) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 9-bobiga asosan Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

25) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

26) Jamiyat tomonidan obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar, seriyali (obligatsiyaviy dasturga asoslangan) obligatsiyalar chiqarish va chiqarilgan obligatsiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

27) Jamiyat emitent bo'lgan qimmatli qog'ozlar emissiya risolasi ko'rib chiqish va tasdiqlash va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

28) e'lon qilingan aksiyalar miqdorida Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish

to'g'risidagi qaror qabul qilish va ustavga bu bilan bog'liq qo'shimcha va o'zgartirishlarni kiritish;

29) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

30) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 34-moddasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirish narxini belgilash;

31) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartib va shartlar asosida xayriya va homiylik mablag'lari ajratish to'g'risida qaror qabul qilish;

32) amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

67. Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Kuzatuv kengashiga bo'sh o'rinlar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

68. Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqli.

69. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

70. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini Kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari amalga oshiradi. Kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan Kuzatuv kengashi tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy sonidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

71. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi. Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

72. Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining yetmish besh foizi Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini o'tkazish uchun kvorumni tashkil qiladi.

73. Kuzatuv kengashi a'zolari soni mazkur Ustavda nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan holatda, Kuzatuv kengashi yangi tarkibni saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Bunda Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari mazkur Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Bosh ijrochi direktor vakolatlari muddatdan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifalarini vaqtincha bajaruvchi shaxsni tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

74. Majlisda kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalarini orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirtidan berilgan deb hisoblanmaydi.

75. Majlis kotibi majlis o'tkazilishidan kamida besh ish kuni oldin majlis kun tartibiga kiritilgan masalalarga tegishli materiallar va hujjatlarni Kuzatuv kengashi a'zolari e'tiboriga yetkazishi lozim.

76. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik

ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kengashning boshqa a'zosiga berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi. Jamiyat ustav fondini (kapitalini) oshirish va Ustavga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi masalalar bo'yicha qaror Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

77. Kuzatuv kengashi majlisi bayonnomalari majlis kotibi tomonidan tayyorlanadi va har bir yig'ilishdan keyin besh ish kunidan kech bo'lmagan muddatda kengash a'zolarga jo'natiladi.

78. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular Qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgar.

79. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va Jamiyat "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomi asosida ish olib boradi.

10-bob. Ijroiya organi (Bosh ijrochi direktor)

80. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi – Bosh ijrochi direktor tomonidan amalga oshiriladi.

81. Ijroiya organi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil qiladi.

82. Bosh ijrochi direktor Kuzatuv kengashining tavsiyasiga asosan Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi va vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi. Uning huquq va majburiyatlari tegishli qonunchilik hujjatlarida, mazkur Ustavida hamda u bilan 3 (uch) yil muddatga tuzadigan mehnat shartnomasida belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

Bosh ijrochi direktor bilan Jamiyat nomidan mehnat shartnomasi Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

83. Bosh ijrochi direktor Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

84. Bosh ijrochi direktor vakolatlariga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyat ustavi va boshqaruv organlari tomonidan berilgan vakolatlar doirasida, Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda Jamiyatning kundalik faoliyatini tashkil qilish va rahbarlikni amalga oshirish;

2) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini ta'minlash;

3) Jamiyatning korporativ strategiyasi va biznes-rejasini ishlab chiqish hamda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga tasdiqlash (ma'qullash) uchun kiritish;

4) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi lozim bo'lgan barcha masalalarni oldindan ko'rib chiqish va ular bo'yicha tegishli materiallar, takliflar va qaror loyihalarini tayyorlash;

5) Kuzatuv kengashining talabi va ruxsatiga ko'ra uning yig'ilishlarida ovoz berish huquqsiz ishtirok etish;

6) Jamiyat va Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarining yangi mahsulotlari

hamda xizmatlarini ishlab chiqish va joriy qilish (bekor qilish), ularni kengaytirish bo'yicha qaror qabul qilish;

7) Jamiyat faoliyatini ta'minlash maqsadida doimiy ishlovchi qo'mitalar, komissiyalar va boshqa ishchi guruhlarni tashkil etish, ularning vakolatlarini belgilab berish;

8) Jamiyatda amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash;

9) Jamiyat biznes risklari va Jamiyat Ijroiya organi javobgarligini sug'urtalashni amalga oshirish yuzasidan qaror qabul qilish;

10) Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish;

11) o'z vakolati doirasida Jamiyat faoliyatini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash. Qonunchilikda, mazkur Ustavda hamda Jamiyatning boshqa ichki me'yoriy hujjatlarida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi tasdiqlashi nazarda tutilmagan barcha ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash Bosh ijrochi direktor vakolati hisoblanadi;

12) Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

13) Jamiyatda moliyaviy va boshqaruv hisobi yuritilishini tashkil etish, xalqaro moliya standartiga muvofiq bo'lgan moliyaviy hisobotni o'z ichiga olgan Jamiyatning yillik hisoboti tayyorlanishini, shuningdek moliyaviy hisobotlarning o'z vaqtida va to'liq topshirilishini ta'minlash;

14) O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol-mulki va pul mablag'larini tasarruf etish;

15) Banklarda hisobvaraqlar ochish;

16) Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;

17) Jamiyat nomidan shartnomalar va boshqa bitimlar tuzish, hujjatlarni, jumladan bank va boshqa moliyaviy hujjatlarni imzolash hamda birinchi imzo huquqini amalga oshirish;

18) Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni tasdiqlash;

19) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, ularning nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, ularning manfaatlarini ifoda etish va bitimlar tuzish;

20) Jamiyat shtat jadvalini tasdiqlash, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

21) Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;

22) xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, faoliyati samaradorligini baholash, mehnat va ijro intizomiga rioya qilishini ta'minlash hamda ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash;

23) Mehnat qonunchiligi va Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Jamiyat xodimlariga mehnat haqini (barcha turdagi mukofotlar, qo'shimcha haqlar, ustamalar va mehnat ishtiroki koeffitsiyentlari) belgilash;

24) Nomzodlik va mukofotlash qo'mitasi bilan birgalikda Jamiyat Korporativ maslahatchisi faoliyatining samaradorligini baholash, samaradorlik ko'rsatkichlari asosida mehnatga haq (barcha turdagi mukofotlar qo'shimcha haqlar, ustamalar va mehnat ishtiroki koeffitsiyentlari) to'lanishini belgilash;

25) Bosh ijrochi direktor o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni va tarkibiy bo'linmalar ish faoliyati nazoratini taqsimlash;

26) Bosh ijrochi direktor o'rinbosarlarini, Risklarni boshqarish bo'limi boshlig'ini, Korporativ maslahatchini va Ichki audit xizmati xodimlarini tayinlash yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar taqdim qilish;

27) mazkur Ustavda yoki qonunchilik hujjatlarida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilmagan Jamiyat faoliyatiga doir barcha boshqa vakolatlarni amalga oshirish va ular bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish.

85. Bosh ijrochi direktor o'z vakolatlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda vijdonan va Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

11-bob. Jamiyat faoliyatini nazorat qilish

86. Jamiyatda samarali ichki nazorat mexanizmlarini joriy qilish maqsadida Ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

87. Ichki audit xizmati Jamiyatning Ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari (mavjud bo'lsa) tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik, jumladan kontragentlar bilan operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek, Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshiradi, baholaydi va nazorat qiladi.

88. Ichki audit xizmati Jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, ellik foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

89. Ichki audit xizmatining faoliyati "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom asosida tashkil qilinadi. Ushbu nizom Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

90. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Ustav, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari, shuningdek, ichki nizomlar bilan belgilanadigan tartibda amalga oshiradi.

91. Ichki audit xizmati xodimlarini tayinlash, ularni lavozimidan ozod etish, ularning ish haqi miqdorini hamda faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) belgilash Kuzatuv kengashi tomonidan Audit qo'mitasi va Bosh ijrochi direktori tavsiyasiga asosan amalga oshiriladi.

92. Ichki audit xizmati va uning xodimlarining huquqlari va javobgarligi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Ichki audit xizmati to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi.

12-bob. Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish

93. Jamiyatni qayta tashkil qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

94. Jamiyatni qayta tashkil qilish qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatni qayta tashkil etilishi uning huquq va majburiyatlarini huquqiy vorisga o'tishiga olib keladi.

95. Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:

1) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra;

2) Markaziy bank tomonidan ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyalari

ro'yxatidan chiqarilganda;

3) sud tomonidan bankrot deb topilganida.

96. Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda Kuzatuv kengashi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining muhokamasiga Jamiyatni tugatish va tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi qaror qabul qilish masalasini kiritadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyat tugatilishi va tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi.

97. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyalari ro'yxatidan chiqarish bilan bog'liq majburiy tugatish amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

98. Jamiyat sud qaroriga ko'ra tugatilganda tugatish tartibi va tugatuvchini tayinlash amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

99. Agar tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytga kelib Jamiyat kreditorlar oldida majburiyatlarga ega bo'lmasa, uning mol-mulki qonunga muvofiq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

100. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

13-bob. Yakuniy qoidalar

101. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

102. Jamiyat qonunchilikda saqlanishi majburiy deb belgilangan barcha hujjatlarni saqlashi shart va ushbu hujjatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyadorlarga taqdim qilishi va/yoki foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart.

103. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar o'zaro kelishuv yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

104. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

105. Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

106. Jamiyat Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

107. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

108. Agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

109. Jamiyatning ushbu Ustavi Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi munosabati bilan, Kuzatuv kengashi majlisining 2025-yil 28-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan va

Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2025-yil 28-avgustda 5019802-son bilan ro'yxatga olingan Jamiyat Ustavi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

**“O‘zbekiston ipotekani qayta
moliyalashtirish kompaniyasi”
aksiyadorlik jamiyati
Bosh ijrochi direktori**



M. Farmanov

